

O'zbek - Xotinlar - Wives Scriptures

Efesliklar 5:22-24 Ey, xotinlar, siz Rabbimiz Isoga qanday bo'ysunsangiz, erlaringizga ham shunday bo'ysuninglar. **23** Masih imonlilar jamoatining boshi bo'lgani kabi, er ham xotinning boshidir. Masih O'z tanasi bo'lgan jamoatning Najotkoridir. **24** Jamoat Masihga qanday tobe bo'lsa, xotinlar ham har jihatdan o'z erlariga shunday tobe bo'lishlari kerak.

Efesliklar 5:31,33 Muqaddas Bitiklarda shunday yozilgan: "Shuning uchun erkak kishi ota-onasidan bo'lak chiqib, xotiniga bog'lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo'ladilar." **33** Xullasi kalom, har bir er o'z xotinini o'zini sevganday sevsin. Xotin ham erini hurmat qilsin.

1 Korinfliklar 7:3 Er o'z xotiniga nisbatan va xotin o'z eriga nisbatan er-xotinlik vazifasini bajo keltirsin.

1 Korinfliklar 7:34 Uning fikri ikkiga bo'lingan. Hozir ersiz bo'lgan ayollar va erga tegmagan qizlarning ham tashvishi Rabbimizning ishlari bilan mashg'ul bo'lishdir, ularning maqsadi ham jismonan, ham ruhan Rabbimizga bag'ishlanishdir. Erga tekkan ayol esa erini mamnun qilish niyatida dunyoviy ishlar haqida qayg'uradi.

Kolosaliklar 3:18 Ey xotinlar, eringizga itoatli bo'linglar. Shunday qilish Rabbimiz Isoning izdoshlariga munosibdir.

1 Timo'tiy 2:11-15 Ta'lim berilayotganda xotinlar sukut saqlasin, muallimning gapini ikki qilmasin. **12** Xotin erkakka ta'lim berishiga va uning ustidan hukmronlik qilishiga ruxsat bermayman. Xotin sukut saqlasin. **13** Axir, oldin Momo Havo emas, balki Odam Ato yaratilgan-ku. **14** Odam Ato emas, xotin shaytonga aldanib, gunoh qildi. **15** O'shandan buyon, xotinlar tuqqanda la'nat tufayli dardu azob chekadigan bo'ldilar. Biroq shunga qaramay, agar ular kamtaru bama'ni bo'lishsa, Masihga bo'lgan imonda sobit qolib, mehr-oqibatli bo'lib, taqvodor hayot kechirishsa, najot topadilar.

Ibtido 3:16 Xotinga esa shunday dedi: "Homiladorligingda g'oyat azob beraman, Mashaqqat ila bola tug'asan. Ammo eringni qo'msayverasan, Ering esa hokim bo'ladi sening ustingdan."

1 Butrus 3:1,2 Egamiz haqi-hurmati, siz, xotinlar, o'z erlaringizga bo'ysuninglar. Erlaringiz Xushxabarni rad etishsa ham, ularga itoat etinglar. Sizning ibratli xulq-atvoringiz har qanday so'zdan ko'ra ta'sirliroq bo'ladi. Erlaringiz pokiza hayotingizni va Xudodan qo'rqib yashayotganingizni ko'rib, imonga kelishadi. **2** Egamiz haqi-hurmati, siz, xotinlar, o'z erlaringizga bo'ysuninglar. Erlaringiz Xushxabarni rad etishsa ham, ularga itoat etinglar. Sizning ibratli xulq-atvoringiz har qanday so'zdan ko'ra ta'sirliroq bo'ladi. Erlaringiz pokiza hayotingizni va Xudodan qo'rqib yashayotganingizni ko'rib, imonga kelishadi.

Titus 2:1-5 Titus, sen sog'lom ta'limot asosida nasihat qil. **2** Yoshi katta erkaklarga ayt: ular mayxo'rlikka berilmaydigan, hurmatga sazovor, vazmin, imonda mustahkam, mehribon va sabr-toqatli bo'lsinlar. **3** Yoshi katta

ayollarga ham tayinla, ular sharaflı hayot kechirsınlar. G'iybat qilmasınlar, mayxo'rlikka ruju qo'ymasınlar. Har qanday xayrli ishda ibrat ko'rsatib, 4 kelinlarga pand-nasihət qilsınlar, ularga o'z erlari va farzandlarini sevishni, 5 vazmin, iffatli, ro'zg'orga jonkuyar, mehribon, erlariga bo'ysunadigan bo'lishni o'rgatsınlar. Shunda hech kim Xudoning kalomini yomonlamaydi.

Sulaymonning Hikmatlari 12:4 Yaxshi xotin erining boshidagi tojidir, erini uyaltiradigan xotin boshga balodir.

Sulaymonning Hikmatlari 14:1 Dono xotin o'z oilasini mustahkamlaydi, nodon xotin esa oilasini o'zi buzadi.

Sulaymonning Hikmatlari 19:13 Nodon o'g'il otasiga tashvish, xotinning janjali esa beto'xtov tomadigan tomchidaydir.

Sulaymonning Hikmatlari 21:9,19 Urishqoq xotin bilan keng uyda umr kechirgandan ko'ra, chordoqda yashagan afzal. 19 Urishqoq va badjahl xotin bilan yashagandan ko'ra, cho'lu biyobonda yashash yaxshiroq.

Sulaymonning Hikmatlari 25:24 Keng uyda urishqoq xotin bilan yashashdan ko'ra, chordoqda yashagan yaxshiroq.

Sulaymonning Hikmatlari 27:15,16 Janjalkash xotin yomg'irli kunda to'xtamay tomayotgan chakkaga o'xshaydi. 16 Uni boshqarish shamolni boshqarish yoki o'ng qo'l bilan moyni ushlab demakdir.

Sulaymonning Hikmatlari 31:10-31 Farosatli xotinni kim topa oladi? Uning bahosi gavhardan ham baland. 11 Eri unga yurakdan ishonadi, hech narsaga muhtoj bo'lmaydi. 12 U eriga yomonlik emas, bir umr yaxshilik qiladi. 13 Jun va surp topadi, xursand bo'lib o'z qo'li bilan ishlaydi. 14 Savdo kemalari kabi uzoqdan nonini keltiradi. 15 Qorong'uda o'rnidan turib, uy ahlini ovqatlantiradi, xizmatkorlariga topshiriq beradi. 16 O'ylab dala sotib oladi, o'z qo'li bilan uzumzor yaratadi. 17 Belini mahkam bog'lab, qo'llariga quvvat beradi. 18 Qilgan ishining rohatini ko'radi, tunlari ham chirog'i o'chmaydi. 19 Qo'lini charxga qo'yadi, barmoqlari dukni tutadi. 20 Kambag'allarga qo'lini uzatadi, muhtojlarga rahm qiladi. 21 Uy ahli uchun qish-qirovdan qo'rqmaydi, chunki ular hammasi qalin kiyintirilgan. 22 O'zi uchun so'zana tikadi, libosi esa kimxob va shoyidandir. 23 Eri yurt oqsoqollari orasida o'tiradi, shahar darvozasida tanilgan. 24 Yana shoyidan kiyim tikib sotadi, savdogarlarga belbog' yetkazib beradi. 25 Libosi — quvvat, sharaf, u kelajakka qarab quvonadi. 26 Donolik bilan so'zlaydi, mehr bilan nasihat qiladi. 27 Uy ahliga yaxshi qaraydi, dangasalik qilmaydi. 28 Bolalari turib duo qiladi, eri ham maqtaydi. 29 "Farosatli ayollar ko'p, ammo sen hammasidan a'losan." 30 Joziba aldamchi, chiroy esa o'tkinchidir, ammo Xudodan qo'rqadigan ayol ko'kka ko'tariladi. 31 Mehnatining mevasini ko'rsin, ishlari darvozalarda uni sharaflasin.

Pastor T. John Franklin

Church of Salvation, Healing, and Deliverance

COS-HAD.org